



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti



+998 91 555 07 65
+998 91 532 86 20
+998 97 576 83 37
@SAMDU_TARIX_FAKULTETI



XORIJDA O'QISHGA ILK QADAM



ZAMONAVIY KAMPUSDA TA'LIM



ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

IJTIMOIIY TARMOQLAR



VEB-SAHIFA

https://www.samdu.uz/cy/pages/tarix_fakulteti

MANZIL

**Samarqand shahar, Universitet xiyoboni,
15-uy**



BAKALAVR TA'LIM YO'NALISHLARI



**60220300 – Tarix (mamlakatlar va
yo'nalishlar bo'yicha)**



60220400 – Arxeologiya



Kunduzgi, Kechki



4 yil, 4.5 yil

BIZ HAQIMIZDA

Tarix fakulteti 600 yillik tarixga ega bo'lgan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ajralmas tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda fakultetda 900 nafarga yaqin talaba, 60 ta magistrant va doktorant tahsil olmoqda. Ularga 58 nafar professor-o'qituvchi ta'lim bermoqda. Ilmiy-pedagogik jamoadan 9 tasi fan doktori, professor, 31 tasi fan nomzodi, dotsent, PhD. Fakultet respublikaga malakali tarixchilarni, muzeyshunos va arxivshunoslarni, davlatning ijtimoiy sohasi uchun kadrlarni tayyorlaydi.

MAQSADIMIZ

Tarix fakulteti maqsadi zamonaviy ilm-fan yutuqlari, xususan yuqori malakali va yuksak bilimga ega bo'lgan tarix, arxeologiya, muzey, arxiv sohasi mutaxassislarini tayyorlash

Amaliyot va stajirovka

Talabalar o'quv va malakaviy amaliyotni umumta'lim maktablari, akademik litseylar, muzeylar, arxivlar va tarixiy-me'moriy yodgorliklar, qadimiy manzillarni qazish va o'rganish jarayonlarida o'taydi. Fanlarni yaxshi o'zlashtirgan talabalar Germaniya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Turkiya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda o'z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega

Xorijda o'qish imkoniyatlari

Fakultet talabalari rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlarida malaka oshirish, magistratura va doktoranturada 100 foizlik grant asosida tahsil olish imkoniyatiga ega. Fakultet quyidagi nufuzli universitetlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan: Xitoy (Gongkong politeknika universiteti), Janubiy Koreya (Yeungnam), Yaponiya (Nagoya), Italiya (Bolonya), Buyuk Britaniya (Oksford), Rossiya (RGU), Germaniya (Gyottingen), Turkiya (Boyazid Yildirim universiteti), Qozog'iston, Tojikiston va boshqa davlatlar oliy o'quv yurtlari

NIMA UCHUN BIZNI TANLASHINGIZ KERAK?

Fakultetda bugun 20 nafarga yaqin ayol professor-o'qituvchilar talabalar, magistrantlar va doktorantlarga ta'lim berib kelmoqda. Ularning 4 nafari professor, 16 nafari dotsent hisoblanadi. Qolaversa, fakultetda bugun 20 nafardan ortiq xotin-qizlar tayanch doktoranturada ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bularning barchasi fakultetda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibordan bir nishonadir. Siz aziz qizlarimizni fakultet talabalari orasida ko'rishdan mamnun bo'lamiz. Ishonamizki, kelajak karyerangizni aynan biz boshlasangiz xato qilmaysiz.



MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI

 **70220301 – "Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)"**

 **70220401 – "Arxeologiya"**

 **70220402 – "Etnogenez (o'zbek xalqining etnik tarixi)"**



Kunduzgi



2 yil